

**SHOIR ARMONI***Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi**TOSHKENT DAVLAT**TRANSPORT UNIVERSITETI**Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi**[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikki xalqning so'nmas yulduzi, mahoratli tarjimon va yetuk adabiyot namoyondasi O'zbekiston xalq shoiri Maqsud Shayxzodaning paxtakorlar to'g'risida ularning qilayotgan og'ir mehnatlari aks etgan asarni yozish uchun qilgan harakatlari haqida ma'lumotlar jamlangan.

**Kalit so'zlar:** paxtakor, mehnat, terim, do'stlik, xastalik, qishloq, yaylovlar.

**ГАРМОНИЯ ПОЭТА***Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.**ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ**ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени**[yoldoshivafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshivafarangiz311@gmail.com)*

**Абстрактный.** В данной статье содержится информация о попытках Максуда Шайхзоды, вечной звезды двух народов, искусного переводчика и выдающегося литературного деятеля, народного поэта Узбекистана Максуда Шайхзоды, написать произведение, отражающее их нелегкий труд.

**Ключевые слова:** земледelec, труд, урожай, дружба, болезнь, деревня, пастбища.

**POET'S HARMONY***Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna**TASHKENT STATE**TRANSPORT UNIVERSITY**Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student**[yoldoshevafarangiz311@gmail.com](mailto:yoldoshevafarangiz311@gmail.com)*

**Abstract.** This article contains information about the efforts made by Maqsud Shaykhzoda, the eternal star of the two nations, a skilled translator and an

accomplished literary exponent, the national poet of Uzbekistan Maqsud Shaykhzoda, to write a work that reflects their hard work.

**Key words:** grower, labor, harvest, friendship, disease, village, pastures.

Ona yurtimiz O'zbekiston hududida turli tuman o'simliklarga boy hududdir. Ayniqsa, milliy boyligimiz paxta va bug'doy yurtimizni nomini dunyoga taratgan milliy boyligimiz haqida qancha gapirsak shuncha kam. Qadim zamonlardan beri yurtimizga turli yovlar bosib olishiga ham aynan yurtimiz yerlarining juda unumli, sersuv yerlardan bo'lganligi sabab bo'lgan.

Bugungi kunda ham ona yurtimiz hur O'zbekistonda oq oltinimiz paxtaga bo'lgan e'tibor juda yuqori. Atoqli adibimiz Maqsud Shayxzoda yashagan o'tgan asrimizda ham paxta juda ulug'langan zamonlar edi. Shoir oddiy xalq bilan suhbat qurishni juda sevar, o'zi ham kamtar hayot tarzini o'ziga odat qilib yashaydigan soddadil va samimiy yozuvchilardan bo'lgan. Yozayotgan har bir narsasini shu xalq tilidan ro'yi rost, aniq tarzda ifodalab berishga harakat qilgan.

Kech kuz kunlarining birida yozuvchi sog'lig'idagi ayrim muammolar bilan shifoxonaga yotishga majbur bo'lib qoladi. O'sha paytda u bilan bir palatada yotgan bir kishi bilan juda yaxshi chiqishib oladi. U kishining orqasidan uni ko'rishga bir qarindoshi tashrif buyuradi. Taqdirni qarang-ki, yozuvchi o'zi uchun endi haqiqiy dilkash topishga muyassar bo'lgandi. Qaysiki, u inson ham aynan yozuvchilik mahoratida anchayin pishigan, yozishlarga qo'li kelib qolgan bir kishi edi. Bu kunlarni yozuvchini xotirlar ekanmiz dilkash kishi shunday yodga oladi: "Men O'rta Osiyo Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan kezlarimda adabiyotga qiziqqanim tufayli o'sha yillarda Yozuvchilar uyushmasida tez-tez o'tkazilgan adabiy kechalarni kanda qilmas edim. Garchand o'sha paytdan boshlab shoir Maqsud Shayxzodani orqavarotdan bilgan bo'lsam ham, u bilan shaxsan tanishishim 1950 yilda ro'y berdi. Shu vaqtda men O'rta Osiyo Davlat universiteti qoshidagi aspiranturaning birinchi kursida o'qirdim. O'sha yili, oyi yodimda yo'q, akam Karim Muqimov xastalikka chalinib, Toshkent shahrining Jukovski ko'chasidagi kasalxonada davolandi. Shu voqea sabab bo'lib men tez-tez akamni ko'rgani kasalxonaga boradigan bo'ldim. Bir kuni akamning ahvolidan xabar olish uchun borsam, akam kasalxonada o'zi bilan bir xonada Maqsud Shayxzoda degan shoirning yotganini aytib qoldi. Lekin shu kuni nima uchundir men Shayxzodani ko'ra olmadim. Ammo keyingi safar borganimda, xonada Shayxzoda ham bor ekan, akam meni shoir bilan tanishtirdi: "Sizga aytgan ukam shu yigit bo'ladi. Yaxshi o'qigani uchun aspiranturada olib qolishgan. Kitobning jinnisi bu. O'zi ham, bilishimcha, qalam tebratib turadi".

Shayxzoda o'sha kunlari sog'lig'ini ancha oldirib qo'ygan ekan. Shunga qaramay, men bilan g'oyat samimiy ko'rishib, qanday mavzu ustida ishlayotganim, o'zbek yozuvchilarining qanday asarlarini o'qiganim va shoir-yozuvchilar orasida

kimlarni ko'proq sevishim to'g'risida savollar berdi. Mening javoblarimdan qanot hissini tuygan bo'lsa kerak, "Yaxshi! Ko'proq o'qing. Faqat badiiy asarlarni emas, turli sohalarga oid tarixiy va ilmiy-ommabop asarlarni ham o'qing. Adabiyotshunosning krugozori olamdek keng bo'lishi lozim", — dedi.

Shundan keyin kasalxonada Shayxzoda bilan yana bir necha marotaba ko'rishdik. Oradan bir necha kun o'tganidan keyin akam ham, Shayxzoda ham kasalxonani tark etishdi. Shunday kunlarning birida Shayxzoda bilan ko'chada ittifoqo uchrashib qoldik. Shayxzoda mendan akamni so'radi va u bilan qisqa muddat ichida qadrondlashib qolgani uchun Chiroqchiga, akamni ko'rgani birga borishni taklif qildi. Ma'lum bo'lishicha, akam kasalxonadan chiqishi oldida Shayxzodani, albatta, Chiroqchi tumaniga mehmonga borishni taklif qilgan va hatto: "Mabodo bormasangiz, qattiq xafa bo'laman", -deb "qo'rqitgan" ham ekan. "Agar birga borsak, — dedi Shayxzoda, — men lafzimda turgan va va'damni bajargan bo'laman. Siz esa bu voqeaning ham jonli guvohi bo'lasiz, ham akangizni ko'rib kelasiz".

Dilkashlikda tengi yo'q bo'lgan har qanday inson har bir qalbgina yo'l topib kiradi deganlari shu bo'lsa kerak. Shoir ham aynan insonlarning ko'ngliga o'zining samimiy, soddadil qalbi va mehribon va dilga yaqin so'zlari bilan bir zumda qalblardan joy ola olgan.

"Akam o'sha yillarda Chiroqchi tumani partiya komitetida kotib bo'lib ishlar va xizmat yuzasidan tuman mehnatkashlari – paxtakor va chorvadorlarning hayotidan yaxshi xabardor edi. Shayxzoda ushbu safar bahonasida Buxoro viloyati (o'sha yillarda Chiroqchi Buxoro viloyatiga qarardi) bilan yaqindan tanishmoqchi, paxtakorlar haqida yozajak yangi asarlari uchun material to'plamoqchi ekan.

Biz, va'dalashganimizdek, Chiroqchi tumaniga borib, akamning mehmoni bo'ldik. Shayxzoda ikki kun mobaynida tuman paxtakorlari va chorvadorlari huzurida bo'lib, ular hayoti bilan tanishdi, jamoa xo'jaligiga qarashli gidroelektr stantsiyasini borib ko'rdi. Ammo, bilishimcha, sodir bo'lgan hunuk voqealar tufayli yozmoqchi bo'lgani paxtakorlar haqidagi turkum she'rlarini yoza olmadi".

Afsus, maqsadingiz yo'lida qanchalik harakat qilsangiz ham sizga nasib qilgan va nasib qiladigan narsa faqat nasibangiz qadardir. O'zbekiston va Ozarbayjon xalqining suyuqli farzandi, atoqli shoir, ikki xalqning so'nmas yulduzi, ajoyib tarjimon, mohir yozuvchi va dramaturg, eng muhimi samimiy inson Maqsud Shayxzoda qilgan so'ngi orzusi armonligicha qolib ketdi. Bugun Shayxzoda ustozimizning ilmiy izlanishlari yo'lidan borib minglab o'g'il qizlar bugun qalam tebratmoqda. O'ylaymizki, ustozimizning ruhlari bu harakatlarni ko'rib shod bo'ladi. Muhimi u inson hamisha yuraklarimizda!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)**

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/maqsud-shayxzoda-haqida-xotiralar>
2. M.Shayxzoda-zamondoshlari nigohida.
3. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/maqsud-shayxzoda-sherlar>